


## IJTIMOIY VAZIYATLARNING NUTQIY MULOQOTNI TASHKILLASHDAGI O'RNI-XUSHMUOMALALIK TUSHUNCHASI



**Valiyeva Dildora Kamalovna**

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Lingvistika (ingliz tili) yo'naliishi

22-32-guruh 2-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada samarali nutqiy muloqotni tashkil qilishda til normalari va xushmuomalalik tamoyillariga rioya etish bo'yicha ma'lumotlar berilgan. Bu qoidalar o'z navbatida chuqur munosabatlarga yo'naltirilgan nutqiy muloqot kontsepsiyasini rivojlantirishini hisobga olgan holda, nutqiy muloqot jarayonida holatga mos tilni qo'llash va xushmuomalalik ko'rsatish xulq atvori muvaffaqiyatning asosiy elementi ekanligi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** muloqot, tadqiqot, xushmuomalalik, konsepsiya, ijobiy, salbiy, kontekst, individualism, xulq-atvor.

Samarali nutqiy muloqotni tashkil qilish har bir tilda muhim sanalgan mavzulardan biri bo'lib kelgan. Tahlil qilishning dastlabki nazariy yondashuvlari shuni ko'rsatadiki, o'zaro ijtimoiy munosabatdagi ma'no tahlili Lakoff, Lich, Braun, Levinson kabi pragmatika sohasining buyuk tadqiqotchilarining ishlarida paydo bo'lgan bo'lib bu jarayonda yani nutqiy muloqotda yetuk darajaga erishishda xushmuomalalik muhim o'rinni tutadi. Xushmuomalalik samarali nutqiy muloqotni tashkil qilishning asosiy elementlaridan hisoblanadi. Tadqiqotchilar o'rtasidagi qarashlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, hammasi "muloqotni maqsadli -ratsional faoliyat sifatidagi veberiy qarash" dan boshlangan. Shu o'rinda ijtimoiy muloqot ishtirokchilari muloqotning asosiy tamoyilidan<sup>1</sup> chetga chiqishi mumkinligini tushuntirish maqsadida (potensial universal) asos taqdim etishga urinishgan. Bu shuni anglatadiki, muloqot jarayonida insonlar bir birini qisqa va lo'nda gapiradigan, rostgo'y, gaplarini tushunarli hamda muhim ahamiyatga ega deb hisoblashi ularda boshqacha o'ylash uchun asos yo'qligini ko'rsatadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki

**Lakoff** xushmuomalalikning uchta qoidasini taklif qildi:<sup>2</sup> majbur qilmaslik, taklif va tanlovlardan berib ko'rish, do'stona bo'lish. Tavsiya etilgan uch qoidani ko'rib chiqar ekanmiz dastlabki ikki qoidalar o'zini olib qochishga yo'naltirilgan xushmuomalalik haqidagi umumiyligi "inglizzabon" tushunchalariga mos kelsa, uchinchi qoida esa ijobiy his-tuyg'ularni ifodalishni o'z ichiga oladi. Bu esa o'z navbatida chuqur munosabatlarga yo'naltirilgan nutqiy muloqot kontsepsiyasini rivojlantiradi.

**Braun** va **Levinsonning** nazariyasi bu ikki qarama qarshi yo'naliishni "salbiy xushmuomalalik" va "ijobiyligi xushmuomalalik" atamalari bilan qamrab oladi. "Salbiy xushmuomalalik"- odamlarga rasmiy hurmat ko'rsatish vositasi hisoblanib, ijtimoiy

<sup>1</sup> Grice, Herbert Paul. 1975. Logic and conversation. In Peter Cole and Jerry Morgan (eds.). Syntax and semantics. Volume 3: Speech acts. New York: Academic Press. 41–58.

<sup>2</sup> Lakoff, Robin T. 1973. The logic of politeness, or minding your p's and q's. Chicago Linguistics Society 9, 292–305.

muhitda o‘zini to‘g‘ri tutishni o‘z ichiga oladi. Masalan, xarid uchun do‘konga kelgan mijozlarga “sir” yoki “mister”, “ma’m” yoki “madam” singari murojaat turlaridan foydalanishni tavsiya etadi. Ijobiy xushmuomalalik esa hamjihatlikka qaratilgan. Bunday ijobiy muloqot turlari etnik belgilar yoki do‘stona murojaat so‘zlar orqali ifodalanishi mumkin. Shu bilan birga ular umumiy munosabat va qadriyatlarni ta’kidlaydi. Bu esa o‘z navbatida madaniyatlararo muloqotni tahlil qilishga undaydi. Lich nutqiy muloqotda xushmuomalalik prinsipini hisobga olgan holda murakkab qoidalar to‘plamini taklif qiladi. Ular quyidagilardan iborat: odob ahloq qoidasi, kelishuv qoidasi, va kamtarlik qoidasi kabilardir. Uning qarashlarida “nega odamlar ko‘pincha nimani nazarda tutayotganini bilvosita yetkazishadi” degan ma’noni anglash mumkin.<sup>3</sup> Ijtimoiy vaziyatdagi nutqiy muloqot jarayonida har bir berilgan savolga javoblarni yuqorida taqdim etilgan qoidalarga binoan tahlil qilib chiqish mumkin.

Masalan ishxonadagi kasbdoshingiz sizdan uning moviy rangdagi yaltiroq tuflisi yoqdimi yoki yo‘qmi , deb so‘rasa , siz “yomon emas ” deb javob berishingiz mumkin. Bu tarzagi noaniq javob Lakoffning<sup>4</sup> Lakoffning qoidalariga binoan do‘stona munosabat sifatida, Braun va Levinsin<sup>5</sup> tadqiqotiga ko‘ra ijobiy xushmuomalalik namunasi sifatida tavsiflanishi mumkin. Lichning qoidalar jamlanmasiga binoan esa nutqiy muloqot namunasini yanada chuqurroq tahlil qilishni talab etadi. Chunki odob -ahloq qoidasiga binoan sizning rostgo‘y bo‘lish istagingizni ifoda etish va shu bilan birga do‘stingizning oyoq kiyimi haqida nima deb o‘ylaganingizni aniq ifoda etishdan qochishga undaydi.

Shubhasiz, bu qoidalar turli madaniytarda turlicha qo‘llaniladi. Masalan Osiyoning ba’zi mamlakatlarida, jumladan, Yaponiyada kamtarlik qoidasi nutqiy muloqot jarayonida yuqori darajada turish bilan birga , u kelishmovchiliklarni bartaraf etish kerakligini o‘z ichiga olgan kelishuv qoidasidan ustun turadi.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, Lichning yondashuvi keng qo‘llanilmagan bo‘lsada samarali nutqiy muloqotni tashkil qilishda muhim ahamiyatga egadir. Lekin ahamiyatlisi shundaki, uning xushmuomalalik strategiyasi sharqiy hamda g‘arbiy tillardagi kommunikativ muloqot hodisalarini tushuntirish mumkinligini asoslab berish jarayonida keng qo‘llanilgan.

Inson nutqi uning madaniyatida harakat qiladi va aks etadi, bu yozilmagan qoida xushmuomalalik printsipi bo‘lib, u turli madaniytarda xulq atvor, odob ahloq va xushmuomalalik tamoyillarini aks ettiradi. Nutqiy muloqot jarayonida holatga mos tilni qo‘llash va xushmuomalalik ko‘rsatish xulq atvori muvaffaqiyatning asosiy elementidir. Suhbat mazmunini to‘g‘ri anglash va samarali strategiyalarni qo‘llash vujudga kelishi mumkin bo‘lgan tushunmovchiliklarni oldini olish va natijada samarali nutqiy muloqotni tashkil etishda muvaffaqiyatga erishishga katta hissa qo‘sishi tabiiy. Tadqiqotchilar odatda xushmuomalalikni bo‘shliqda baholab bo‘lmaydi, degan fikrga qo‘shiladilar. Xushmuomalalik kontekst bilan bog‘liq hukmdir: “ hech qanday jumla

<sup>3</sup> Leech, Geoffrey. 1983. Principles of Pragmatics. London: Longman.

<sup>4</sup> Lakoff, Robin T. 1973. The logic of politeness, or minding your p’s and q’s. *Chicago Linguistics Society* 9, 292–305.

<sup>5</sup> Brown, Penelope and Stephen C. Levinson. 1987 [1978]. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge: Cambri dge University Press.

tabiatan muloyim yoki qo‘pol bo‘lmaydi<sup>6</sup>. Vatts shuningdek , xushmuomalalik babs-munozaraga boy mavzu ekanligini ta‘kidlaydi: “ Xushmuomalalik tilidan foydalanishda nazarda tutilgan ma’no to‘g‘risida hamma ham bir hil fikrda bo‘lavermaydi<sup>7</sup>. Hatto ingliz tilida so‘zlashuvchi davlatlar jamiyatiga e’tibor qaratsak ham, muloyim hulq-atvorni tashkil etuvchi umumiy tushunchalarga kiritilgan narsalarda juda ko‘p farqlar mavjud. Tushunishlar “ ijtimoiy juhatdan “to‘g‘ri” yoki ma’qul keladigan xulq-atvordan, o‘ziga xos xatti-harakatdan, boshqalarga nisbatan ehtiyyotkorlik bilan muosabatda bo‘lishdan, o‘zini o‘zi qadrlash fe’lidan, qarama - qarshilik, takabburlik, nosamimiylilik v ava boshqalar kabi salbiy sifatlar ”<sup>8</sup> ni o‘z ichiga oladi.

Samarali nutqiy muloqot globallashuv rivojlanishining talabi bo‘lib , u turli ijtimoiy faoliyat sohasida yuqori darajada tashkil etilishi lozim. Ta‘kidlash joizki, u turli darajadagi ijtimoiy muloqot faoliyatida mavjud va mavjud bo‘lib kelmoqda. Dunyo millatlarini kuzatar ekanmiz , muloqot jarayonida turli mintaqalar, mamlakatlar, millatlar va madaniyatlarda kommunikatorlar o‘zlarining ma’lumotlarini til va boshqa aloqa elementlari orqali yetkazib beradilar. Agar muloqot jarayoni insonlar o‘rtasida bir birini tushunnmagan holda olib borilsa , bu o‘z navbatida turli tushunmovchiliklarga olib keladi, muloqotning muvaffaqiyatsizligi vujudga keladi va har ikki tomon izlayotgan o‘zaro manfaatlari maqsadga putur yetadi.

Shu o‘rinda ingliz tilshunosi Lichning ta‘limotiga yuzlanar ekanmiz, u Britaniya madaniyatining xususiyatlari ko‘ra, Britaniyaning xushmuomalalik tamoyillarini oltita muhim jihatlarga ajratgan:

- odob -ahloq qoidasi;
- saxiylik qoidasi;
- maqtov qoidasi;
- kamtarlik qoidasi;
- kelishuv qoidasi;
- hamdardlik qoidasi;

Sanab o‘tilgan oltita tamoyil ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarning xushmuomalalik tamoyilini ifodalangan holda nutqiy muloqot jarayonida unumli foydalanishga tavsiya etiladi.

O‘zbek va ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarning muloqot madaniyatini taqqoslar ekanmiz, har ikkala madaniyat tamoyillari ijtimoiy sohalardagi hamkorlik jihatlariga urg‘u berishini ko‘rishimiz mumkin. Lich tomonidan taqdim etilgan tamoyillarga ko‘ra shaxslararo munosabatlar teng deb hisoblanib suhabatdoshga bevosita ularning ismlari bilan murojaat qilinadi. O‘zbek madaniyatida nutqiy muloqot jarayonida kattaga hurmat, kichikka izzat tamoyili ustunlik qilgan holda bu usullardan turli ijtimoiy vaziyatlarda keng foydalilanadi. Muloqot jarayonida insonlar o‘rtasida suhabatdoshining fikrini to‘g‘ridan-to‘g‘ri inkor etish yoki rad etish holati odobsizlik belgisi sifatida qaraladi. O‘zbek xalqi muloqot jarayonida “uyg‘unlik” tamoyili nafaqat ikkinchi tomon nutqining ma’nosiga mos keladi, balki unga maqtov va iltifot

<sup>6</sup> Fraser, Bruce and William Nolan. 1981. The association of deference with linguistic form. In Joel Walters (ed.). The Sociolinguistics of Deference and Politeness. The Hague: Mouton. 93–111.

<sup>7</sup> Watts, Richard. 2003. Politeness. Cambridge: Cambridge University Press.

<sup>8</sup> O’sha manba.

ko'rsatishlarni ham o'z ichiga oladi. Birinchi tomonni o'zini pastroq ko'rishi ijobiy qabul qilinadi. Bundan ko'rinib turibdiki, turli ijtimoiy vaziyatlarda va madaniyatlarda odamlar turli xil muloyim tilda muloqot qilishni va o'z fikrlarini ifodalashning turli usullarini tanlaydilar.

Har bir jamiyatda suhbatning eng dastlabki qismi salomlashish hisoblanib, u turli kontekst va madaniyatda turlicha bo'ladi. Suhbat jarayonidagi salomlashish nutqiy muloqotdagi noqulay muhitni buzishi yoki uni yaxshi boshlash uchun zamin yaratishi mumkin. Ingliz tilida so'zlashadigan mamlakatlarda salomlashish odatda kichik suhbatlar sifatida tanilgan, shu bilan birga bu ma'lum bir mavzular haqida gapirishdan oldin suhbatni boshlash qismi sifatida tushunilishi mumkin. Mamlakatning joylashuv kontinenti, u yerda yashovchi xalqlar kontingeti va madaniyatidan kelib chiqqan holda, salomlashish turli xil bo'lishi va ko'plab harakatlar bilan ifodalanishi mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, dunyo xilma -xil ekan odamlar ham bir-birlari bilan turlicha salomlashadi. Masalan, Tunisda bir-birini uchratib qolgan shaxslar avval ta'zim qilishadi, keyin esa o'ng qo'lini peshanasiga, keyin labiga va so'ngra esa yuragiga tekkizishadi. Bu ishoralar orqali o'zaro hurmat qilishini, ular haqida o'ylayotganingizni ifoda etish mumkin. Tinch okeani orollarida joylashgan Tonge shahrida esa tanishini uchratib qolganda oyoqlarini qoqib, boshini qimirlatib qo'yishadi. Grenlandiyada esa insonlar orasida hech qanday rasmiy salomlashish shakli yo'q, shu sababli ham ular ko'rishganda "Ob -havo yaxshi" degan so'zni aytish bilan cheklanib qo'yishadi. Yaponiyada esa insonlar bir-birlariga ta'zim qilgan holda salomlashadi. Salomlashish turlari haqida gapirar ekanmiz, klassik qo'l berib ko'rishish ular orasida muhim o'rin egallagan. Klassik qo'l berib ko'rishish tarixiga nazar solsak u uzoq vaqt oldin paydo bo'lganini guvohi bo'lamiz. Qo'l uzatib salomlashishning eng muhim ma'nolaridan biri bu samimiylikni bildirib, qo'z uzatish orqali siz qarshingizda turgan odamga yaxshi niyatda ekanligindizni bildirish bilan bir vaqtida, qo'lingizda hech qanday qurol yo'q ekanligini ham ifodalaysiz.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, nutqiy muloqotning samarali bo'lishi bir necha omillarga tayangan holda olib boriladi. Ulardan biri suhbat jarayonini to'g'ri tanlangan mavzu orqali boshlash va asosiy mavzuga ko'chishdir. Masalan, ob-havo odamlarga keng ma'lum bo'lgan o'rtacha doimiy salomlashish mavzusi hisoblanadi. Shuni unutmaslik kerakki, ingliz tilida so'zlashadigan mamlakatlarda yosh, daromad, oilaviy sharoit, manzil va boshqa shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida muloqot jarayonida savol berish qabul qilinmagan. Umuman olganda, suhbat jarayonida asosiy ishtirokchilar haqida emas, balki ob'yektiv narsalar haqida gapirish asosiy tamoyil sifatida qabul qilingan. Ko'plab insonlarga va ayniqsa yoshlarga biroz noqulay mavzu sifatida tanilgan yosh, nikoh, va iqtisodiy daromad mavzulari o'zbek madaniyatida doimiy ravishda suhbatning asosiy mavzusiga aylanib kelmoqda. Ijtimoiy jamiyatdagi nutqiy muloqot va suhbat jarayonlarini kuzatar ekanmiz, o'zbek xalqining suhbat mavzulari hali ham ko'proq shaxsiy mavzularni qamrab olganini ko'rishimiz mumkin.

Nutqiy muloqot jarayonidagi vaziyatlarni tahlil qilar ekanmiz, g'arbliklar boshqalarni ko'rganda quvnoqlik bilan "Hello" yoki "Hi, how are you? " deb qarshi oladi. Agarda ular notanish odam bilan gaplashayotgan bo'lsa, ular salomlashish usuli sifatida ob-havo haqida mavzu ochishga moyildirlar. O'zbek xalqi esa suhbatni bir

qancha shaxsiy savollar bilan davom ettirishni ma'qul ko'rishadi: "Qayerga ketayapsiz", "Shaharga birinchi kelishingizmi?", "Bu yerda nima qilayapsiz?" kabi.

Suhbat jarayonida xayrlashuv ham muhim o'rin egallaydi va muloqot vaziyatiga qarab uning turli usullaridan foydalanish mumkin. Har ikkala mamlakar suhbat jarayonlarini kuzatar ekanmiz, ularning turli xil ekanligini anglashimiz mumkin. Xayrlashuv davomida o'zbek xalqi juda rasmiy holda xayrlashuv sifatida kamdan-kam hollarda "xayr" deyishadi. O'zbek madaniyatida mehmonlar ketishdan oldin "Men endi borishim kerak", "Men turaqolay", "Ketmasam bo'maydi", "Yaxshi qoling" kabi gaplardan foydalanishni ma'qul ko'radilar. Mezbonlar esa ularni kuzatish uchun "Ehtiyyot bo'ling", "Oq yo'l", "Yana kelib turing" deyishga odatlanganlar. Xayrlashish frazalari turli tuman bo'lib, ulardan eng ko'p ishlatalinadiganlari "Endi men ketishim kerak", "Keyingi safar suhbatlashamiz", "Bo'sh bo'lganiningda menikiga kel.", "Iloji bo'lsa albatta ko'rishamiz" "Iloji bo'lishi bilan albatta boraman" kabilardir.

Samarali nutqiy muloqotni turli ijtimoiy vaziyatlar misolida ko'rib chiqarkanmiz, shaxsiy hayot ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar madaniyatida juda muhim qadriyat hisoblanib, Sharq mamlakatlariga qaraganda muhimroq qadriyat hisoblanadi. O'zbek mintalitetiga mansub xushmuomalalik harakati hisoblangan biror bir harakat ingliz madaniyatida insonning shaxsiy hayotiga aralashish jarayoni sifatida qaraladi. Iliqlik va g'amxo'rlik ko'rsatish odobli harakat hisoblanib, uni ifodalsh uchun "munosabat iliqligi" ('attitudinal warmth') birikmasi qo'llanilgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, shaxsiy hayot tushunchasi turli odamlar tomonidan turlicha tushuniladi. Ikki sharqlik uchrashganda asosiy suhbat mavzusi ularning yoshi, nikohi, oilasi, kasbi, daromadlari haqida bo'lishi mumkin, lekin bu mavzularni o'z ichiga olgan suhbat jarayoni g'arbliklar uchun shaxsiy hayotga aralashuv sifatida tushunilishi mumkin. Xushmuomalalik ko'rsatishning yana bir e'tiborli jihat shundaki o'zbek insonlari boshqa odamlarga nisbatan ko'proq qayg'urishadi, bu esa o'z navbatida ular o'rtasidagi ijtimoiy masofani qisqartirishga yordam beradi. Ammo buning aksi sifatida ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar madaniyatida suhbatdoshga bunday mazmundagi savollar berish uning shaxsiy hayotiga qo'pol darajada tajovuz qilinayotganidan dalolat beradi.

Misol uchun quyidagi suhbatga qarang:

Jamoat transportida ketayotgan 50 yoshli odam 25 yoshli suhbatdoshini o'ziga yaqin olib, suhbatni boshlaydi.

**50 yoshli odam:** Necha yoshdasiz?

**25 yoshli yigit:** 25 da .

**50 yoshli odam:** Qayerga ketayapsiz?

**25 yoshli yigit:** Ishga.

**50 yoshli odam:** Uylanganmisiz?

**25 yoshli yigit:** Yo'q hali uylanmaganman.

**50 yoshli yigit:** "Uylanish kerak", -deb nasihat qildi yo'lovchi yonidagi sherigiga.

**25 yoshli yigit:** Ha, hali vaqt soati kelmadi.

**50 yoshli odam:** Oilada nechi kishisizlar?

**25 yoshli yigit:** Otam, onam, 2 nafar ukam va singlim, men eng kattasiman.

(*Suhbat shu tariqa uzoq davom etishi mumkin, suhbatdoshlardan biri o‘z manziliga yetgandagina u yakun topishi mumkin*)

Bunday suhbat namunasi sharqliklar uchun oddiy suhbat sirasiga kirsada g‘arbliklar uchun esa huddi intervyu yoki so‘roqdek tuyulishi mumkin. Turli ijtimoiy vaziyatlarda o‘zbeklar suhbatdoshining yoshi, turmushi, farzandlari, maoshi va hokazolar haqida gapirishni yaxshi ko‘radilar va bu mavzular ko‘pchilik uchun qiziqarlidir. G‘arbliklar esa bunday savollarni so‘rash va hattoki bunday savollarga javob berishdan ham bosh tortadilar. Bunday suhbat mavzulari ular uchun shaxsiy hayotga aralashuv sifatida qaraladi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, ko‘plab mamlakatlarda uy va ish joyi shaxsiy hududlar hisoblanib, hattoki stol ustidagi xatlar, hujjatlar, jurnallar, gazetalar va boshqalar o‘z egasiga tegishlidir. Ruxsatsiz ularga qarash, o‘qish odobsizlik namunasi sifatida qaraladi.

Qisqacha individualism haqida mulohaza yuritadigan bo‘lsak- individualism XVII asr ingliz faylasufi Jon Lokk tomonidan taklif qilingan bo‘lib, bu har bir shaxs o‘ziga xos , tipik, boshqa barcha shaxslardan butunlay farq qiladi va “tabiatning asosiy birligi” ekanligini batafsil yoritib bergen. Individualism tarix va madaniyat bilan chambarschas bog‘liq bo‘lib, ingliz tilida so‘zlashadigan mamlakatlarda katta ahamiyatga ega va u odatda shaxsning erkinligi, huquqi va mustaqilligiga ishora qiladi. Bu esa o‘z navbatida hurmat ko‘rsatish va odobli xatti-harakatlar sifatida shakllanadi.

Shunday qilib , misol uchun, sharq madaniyatida mehmonga nisbatan haddan ziyod iltifot ko‘rsatish normal holat sifatida hisoblansa, g‘arb madaniyatida buning aksidir. Kuchli tushunchaga ega g‘arbliklar individualizmni namoyish eta olmagan odamda nimadir noto‘g‘ri deb o‘ylashadi. Bu shundan dalolat beradiki, ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlar madaniyatida individual tushuncha chuqur ildiz otgan.

Yuqorida misollardan xushmuomalalikning universal ekanligini ko‘rish mumkin. Deyarli barcha madaniyatlarda uni hodisa sifatida kuzatish mumkin; u turli tillarda so‘zlashuvchilar tomonidan maqsadga erishish vositasi sifatida murojaat qilinadi va u barcha jamiyatlarda norma sifatida e’tirof etiladi. Shu bilan birga bu hodisa samarali nutqiy muloqotni tashkillashda tayanch ko‘makchi vazifasini bajaradi. Shuni unutmaslik kerakki, keng ishlatilinishiga qaramasdan xushmuomalalikning dolzarb ko‘rinishlari, xushmuomalalikni amalga oshirish yo‘llari va fikr-mulohaza yuritish me’yorlari turli madaniyatlarda turlicha farqlanadi. Turli madaniyatlarda bunday farqlarni nutqiy muloqotni tashkil qilishda xushmuomalalikning kelib chiqish tushunchasi bilan bog‘lash mumkin. Ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlar madaniyatida ham, sharq madaniyatida ham xushmuomalalik tushunchasi umumbashariy bo‘lsada, u turli xalqlarda turlicha kelib chiqishga ega va ishlatilish yo‘llari ham kontekstga qarab farqlanishi kerak.

Yuqorida taqdim etilgan fikrlarni umumlashtirgan holda , shuni aytish joizki, ingliz tilida so‘zlashuvchi madaniyat va umuman G‘arb dunyosida xushmuomalalik ma’lum bir ijtimoiy joylashuv va ma’lum bir ijtimoiy guruhg‘a xos bo‘lgan xatti-harakatlar bilan chanbarchas bog‘liq hisoblanadi. Sharq madaniyatida esa xulq-atvorning an’anaviy lashgan me’yorlari to‘plamiga rioya qilish xushmuomalalik hisoblanib, nutqiy muloqotni tashkil etishda yuqori ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. A.Musayev “Nutqiy muloqotni shakllantrish omillari va uning asosiy xususiyatlari”. 1998. jdpu.uz.
2. “Til va nutq”. Ne’matov X. , Bozorov A. Toshkent 1993.
3. Maqsudova M.A. “ Muloqot psixologiyasi”. Toshkent 2006. nauchniyimpuls.ru
4. Sh. Hamroyev “Zamon va yoshlар nutqi”. Toshkent 2020.
5. Aslonov I. N. “Ijtimoiy faoliyat va muomala Psixologiyasi”. Toshkent 2019. americanjournal.org
6. Brown P, Levinson S “Politeness” Cambridge, 1987